

**BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI****Shaymardanov Asror Aslonovich***Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
psixologi*

**Annotatsiya:** *Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.*

**Kalit so'zi:** *Bolalar -bizining ertangi sudyalarimiz.*

Odam bolasining rivojlanishi ,uning yetuk , barkamol inson bo'lib yetishishi muhim jarayon hisoblanadi.Hozirgi kunda yetuk shaxsni shakllantirish uchun nimalar qilish kerak rivojlanishning qaysi turiga alohida e'tibor berish kerak va bolani qanday qilib barkamol shaxs qilib rivojlantirish kerak degan savollar hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.Bu davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.Zero rivojlanayotgan O'zbekistonimiz yoshlar qo'lidadir. Shunday ekan har bir ota -ona hali bola ona qornida paydo bo'lganidan uni tarbiyalay boshlashi kerak bo'ladi."Bir inson bolasini dunyoga keltirib, bir donishmand yoniga boradi va undan men bolamni barkamol, ham ma'nan ham jismonan barkamol shaxs qilib tarbiyalashim uchun qanday ishlar qilishim kerak deb savol beradi, donishmand unga bolangiz dunyoga keldimi deb so'raydi u kishi ha deb javob beradi, shunda donishmand siz bolani tarbiyalashga kechikibsiz uni ona qornidayoq tarbiyalab boshlashingiz kerak edi deb javob beradi"Bundan ko'rinib turibdiki bolani barkamol qilib shakllantirishimiz uchun bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar muhim hisoblanadi.Bu omillar ijtimoiy omil, irsiyat va oila tarbiyasidir.Bolalaring erkin rivojlanishi haqida konsitutsiyamizda ham belgilab qo'yilgan masalan bola dunyoga kelganidan unga "So'z erkinligi" beriladi. Bu esa har bir bola o'z so'z erkinligiga ega demakdir. So'z orqali har qanday vaziyatda ijtimoiy muhitga kiraolishi, muammoli vaziyatlarni hech kimdan qo'rqmay to'laligicha hal eta olishi, turli jamoaviy yig'inlarda o'z nutqidan foydalanib gapirish huquqiga egadir. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon rivojlanishning qaysi yo'nalishidan foydalanib bolalarni tarbiyalash ko'proq samara berishi haqida olimlar baxs munozaralar qilib kelmoqda.

Biologik omilga qaraydigan bo'lsak bu irsiyat yani bola o'zida paydo bo'ladigan qobiliyat, talant va boshqalar ota-onadan o'tadi bunda tarbiya va muhtning o'rni yo'q deya ta'rif beradi."Shaxsning barcha hususiyatlari jumladan ong va aqliy hususiyatlari ham nasldan naslga o'tadi" deb Torndayk aytadi. Bolaning shakllanishi haqida g'arb faylasuflarining fikrlari.Biologik yo'nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs bo'lib rivojlanishida irsiy omillar hal qiluvchi omil deya ta'riflaydi. G'arb olimlarining fikricha bola dunyoga kelib faqat otaonadan o'tgan beligilar bilan rivojlanib boradi deb aytadi. Ular tarbiya va muhitning ro'lini tamomila cheklab

shaxs rivojlanishida irsiyatni birinchi darajaga ko'taradi. G'arb olimlaridan yana biri bu V. Pterndir u "Yangi tug'ilgan bolani odam emas sut emizuvchi deya ta'riflaydi" Bola dunyoga kelgandan huddi hayvon kabi bo'ladi u irsiyati orqali ya'ni ota - onasidan o'tgan belgilar bilan rivojlanib boyib boradi va vaqatlar o'tib shaxs bo'lib kamolga yetishini aytadi. Byullar bola faqat qobiliyatlarni ota - onadanmas ahloqiy normalar ham irsiyat orqali o'tishini aytadi. Xalqimizda "onasini ko'rib, qizini ol" degan naql bor ya'ni ota - ona qanday xulq- atvorga ega bo'lsa bola ham shunday ko'rinishda bo'lar ekan. Irsiyatni biologik tomondan o'rganib chiqadigan bo'lsak irsiyatning yaxshi tomoni bilan birga yomon tomoni ham bor bunga misol qilib ota-ona orqali bolalarga faqatgina yaxshi hususiyatlari o'rishi bilan birga yomon belgilari ham o'tishi mumkin masalan yomon hulq atvor, turli irsiy kasalliklar. Irsiy kasalliklar bolaga ota-ona tomonidan o'tganda ular umrining oxirigacha saqlanib qolib ketishi mumkin bu ham bolaning rivojlanishi uchun to'siqdir. Meditsina ham shuni aniqlaydi-ki irsiy kasalliklar davolanishi qiyin yoki ummuman davosiz umrbod saqlanib qoluvchi kasallik ekanligini aytib o'tgan. Ibn Sino Inson tashqi ko'rinishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishini aytib o'tgan. Agar irsiy kasallik sezilib tursa bolada yanayam rivojlanishda ortda qolish kuzatiladi. Irsiyatning ijobiy tomonlari ham bor masalan ko'p oilalarda bolalar ota-ona kasbi davomchisi hisoblandi.

Ota-ona egallagan kasbni egallaydi. Biron bir hunarmandchilikning turiga qiziqsa bola ham o'sha yo'ldan ketadi. Irsiyatga o'tmishda ham katta e'tibor bergan Amir Temur bobomiz kelin tanlayotganda kelining yetti pushdini surishtirib kelin qilgani buning yaqqol namunasidir. Oila tarbiyasi- oilada otaona vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Oila tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch oilada ruhiy ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasida birlikning saqlanishi kerak bo'ladi. Barkamol shaxsni shakllantirish uchun oilaviy muhitda mehnatsevarlik muhitini yaratish, bolalarni mehnatni sevishtga o'rgantish kerak bo'ladi. Bola rivojlanib shaxs bo'lib yetishishi uchun eng avval unga oilaviy tarbiya kerak bo'ladi. Bola nihol kabidir uni qanday parvarish qilsak mevasini ham shunday olamiz, daraxtning hosildor bo'lib yetilishi eng avval bog'bon parvarishidadir. Shunday ekan bolalarni hali shakllanmasdan ijtimoiy muhitga kirmasligidan oilaviy sharoitda unga to'g'ri tarbiya berishimiz kerak bo'ladi. Bola kichkinaligida berilgan tarbiya ham huddi bilim kabi naqsh singari muhrlanib qoladi. "Tarbiya -inson kamolotiga ta'sir qiluvchi tashqi va eng muhim omil hisoblandi" Oilada qanday tarbiya ko'rgan bo'lsa bolalar bu tarbiyani ijtimoiy muhitda ham ko'rsatdi. Oila bu jamiyatning bir bo'g'ini hisoblanadi. Oilaviy muhit yaxshi bo'lgandagina jamiyat rivojlandi. Shuning uchun hozirgi kunda prezidentimiz oilaga ,oilaviy sharoitga alohida e'tibor bermoqda. Har bir ota-ona kelajakda ma'naviy sog'lom farzandi bo'lishini hohlasa, avvalo oilaviy sharoitini yazshilashi, sog'lom oilaviy sharoitni yaratishi kerak. Sog'lom farzand sog'lom sharoitda voyaga yetadi. Ota -ona bola qiziqishlariga alohida e'tibor qaratishi, uning hohishini bajarishi kerak. Bolaning maktabgacha yoshidagi bo'lgan qiziqishlari uning

kelajagi uchun poydevordir. Bola bog'cha yoshida qiziqishlar uyg'onadi har bir ota - ona qiziqishlarni to'g'ri baholab qishqishlarni rag'batlantirishi, bolani qishiqishi tomon yo'naltirishi kerak. Buyuk sportchilarning hayotiga nazar soladigan bo'lsak hozir shug'illanib kelayotgan sportlariga bog'cha yoshidan qiziqib ota - onasi to'g'ri yo'naltirgani sabab shunday yutuqlarga erishgan. Maktabgacha yosh davri bolalar hayotida iste'dodlar uyg'onadigan davrdir. Oilada sog'lom muhit deganda ota - ona o'rtasidagi iliq munosabatlardir "Qush inida ko'rganini qiladi "degan naql bor ota - ona bir biriga yaxshi munosabatda bo'lar ekan bola voyaga yetib ota - onasi yaratgan oilaga o'xshagan oila yaratadi. Oilada bola qiziqishlari va uning hohishlarini vaqtida qondira bilish kerak, ularga vada berib vadani vaqtida bajarsa bola ongida ijobiy g'oyalar paydo bo'ldi. Bola hohishlarini aytgan paytida qondirish salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Afsuski bugungi kunda juda ko'p oilalarimiz g'arb mamlakatlaridan andoza olib oilasini tartibda, bolalarini g'arbona tarbiya bilan voyga yetkazmoqda. Oilada mehr muhannat ota-ona va farzand o'rtadidagi do'stona suhbat davralari yo'q bo'lib ketmoqda. Eng muhimi oilada axloqiy tarbiya paydo bo'ladi. Fitrat o'zing mazkur asarida farzand tarbiyasi aqliy tarbiyada aqliy tarbiya, badan tarbiya va axloqiy tarbiyaning o'rnining muhimligini takidlaydi. Mazkur uch tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O'zingiz xohlaganingizcha bolaning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishingiz mumkin va qo'lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa aqli va jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi.

Ijtimoiy muhit - insoning yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy sharoitlar. Muhit keng ma'noda (makromuhit) ijtimoiy iqtisodiy tizimni -ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o'z o'z ichiga oladi. Tor ma'noda ijtimoiy muhit (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat o'quv va boshqalar guruhlaridan iboratdir. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi Ayni vaqtda insonning ijtimoiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi. Ijtimoiy muhit bola shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblandi oilaviy sharoit ham aslida kichik ijtimoiy muhit hisoblandi lekin bunda bola to'lig'icha shakllanmaydi. Bola maktabga chiqilib haqiqiy ijtimoiy muhitga kiradi yon atrofdagilar bilan munosabati tubdan o'zgaradi va ijtimoiy muloqdotni o'rganadi. Oilasida ota onasiga qilgan erkliklarni yo'qotib shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ijtimoiy muhitda muomala madaniyati ham shakllanadi kimga, qaysi paytda qanday munosabatda bo'lish jarayonlarini o'rganadi. Bola tug'ilganida hayvoniy hislatlar bilan tug'iladi, huddi hayvon kabi bo'ladi ijtimoiy muhit bolani rivojlantiradi shaxs sifatida shakllantiradi. Hayvoniy hislatlardan yiroqlashib shaxs bo'lib shakllanadi. Ijtimoiy muhit bola rivojlanishi uchun muhim bo'laganligi sababli juda ko'p olimlar ijtimoiy muhitning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqadi. Bixeviorizm asoschilari N. Miller va D Dollard hisoblanadi. Ular bola hayotida ijtimoiy muhitning ro'lini yuksak baxolab bolani shakllantiruvchi asosiy



qisim deb biladi. Olimlar bola ijtimoiylashuvi uchun ota -onaning ro'lini yuksak baholab ularning alohida vazifalari borligini aytadi. Bola ijtimoiylashuvida ota -onalarning vazifasi bolani ovqatlantirish bolada agrsessiyaning namoyon bo'lishi , uning jinsiy indentifikatsiyasi va me'yoriy xulq atvorlarning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish kabi vazifalar yuklatilgan bo'ladi. Bola ijtimoiylashuvi murakkab jarayon bo'lganligi uchun ota -ona ko'magi kerak. Bola ijtimoiy muhitga kirganida uning tarbiyasi yutish -turishi odamlarga munosabati hattoki oilasiga munosabati ham o'zgaradi.

Agressiyani moyillashtirish sharoitlarini o'rganish ijtimoiylashuv nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv jarayoni favqulotda keng va ko'p qirrali jarayondir. Ijtimoiylashuv jarayoni onson bo'lishi uchun oilaviy sharoit ham juda muhimdir bola xulqi yaxshi bo'lsa ijtimoiylash ham onsonlashadi bolarning turli davralarga erkin kirib turli odamlar bilan munosabtga kirishishi onson bo'ladi. Bunday jarayonda hulq albatta muhimdir. Bolaning ijtimoiy muhitga kishishida ota -ona juda e'tiborli bo'lishi kerak. Bolaning yon atrofidagi o'rtoqlari unga yomon ta'sir ko'rsatsa bola hayoti ham salbiy tomonga o'zgaradi. Barkamol shaxsni shakllantirish , kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalamog'imiz kerak. Bolalar rivojlanishiga qaysi ta'sir mihimroq qaysisi yetarli va qaysisi yetarli emas har birini o'rganib chiqishimiz kerak . Bola rivojlanishida qaysi tomonlama bo'shliq bo'lsa uni kerakli ma'lumot va ota -onaning to'g'ri maslahati bilan to'ldirish kerak. Zero kelajak yoshlar qo'lida.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Z.T. Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". 2. Xasanova. O U "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi "
3. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.
4. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.
5. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
6. Ганиева, М. (2021). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ “ТРИЗ” ДЛЯ РАЗВИТИЯ УЧЕНИКИ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА. Academic research in educational sciences, 2(5), 129-133.
7. G'aniyeva, M. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA TRIZ (IXTIROCHI MASALALARINI HAL QILISH NAZARIYASI) DASTURINI QO'LLASHNING SAMARALI USULLARI. Scientific progress, 2(5), 108-112.